



UDK: 070(575.1)

Dilmurod TILLAYEV,
Urganch davlat pedagogika instituti mustaqil tadqiqotchisi
E-mail: aliserai@bk.ru

Ma'mun universiteti NTM professori, t.f.d S.Matkarimova taqrizi asosida

“SUN OF THE REVOLUTION” NEWSPAPER AS AN UZBEK-LANGUAGE PRESS ORGAN

Annotation

This research explores the newspaper “Inqilob Quyoshi” as an Uzbek-language press organ operating during the first quarter of the 20th century. The study analyzes the newspaper's foundation history, editorial team, political and social orientation, as well as its linguistic and stylistic characteristics. The findings reveal that “Inqilob Quyoshi” played a significant role in the development of Uzbek journalism, dissemination of Soviet ideology, promotion of literacy, and cultural awakening.

Key words: uzbek press, soviet ideology, jadidism, literacy, language and style, social life, historical source.

ГАЗЕТА “СОЛНЦЕ РЕВОЛЮЦИИ” КАК УЗБЕКСКОЯЗЫЧНЫЙ ПЕЧАТНЫЙ ОРГАН

Аннотация

В данной научной работе рассматривается газета «Солнце революции» как орган узбекоязычной прессы, действовавший в первой четверти XX века. Проанализированы история создания издания, состав редакции, политико-социальная направленность, а также языковые и стилистические особенности. Результаты исследования показывают, что газета сыграла важную роль в истории узбекской журналистики, распространении советской идеологии, повышении грамотности населения и культурном возрождении.

Ключевые слова: узбекская пресса, советская идеология, джадидизм, грамотность, язык и стиль, общественная жизнь, исторический источник.

“INQILOB QUYOSHI” GAZETASI O'ZBEK TILIDAGI MATBUOT ORGANI SIFATIDA

Annotatsiya

Maqolada XX asrning birinchi choragida faoliyat yuritgan “Inqilob quyoshi” gazetasi o'zbek tilidagi matbuot organi sifatida o'rganilgan. Gazetaning tashkil topish tarixi, tahririyat tarkibi, siyosiy-ijtimoiy yo'nalishi, til va uslubiyati tahlil qilingan. Tadqiqot natijalariga ko'ra, “Inqilob quyoshi” o'zbek matbuoti tarixida muhim o'rin egallagan, sovet mafkurasini singdirish, savodxonlikni oshirish va madaniy uyg'onish jarayonlarida faol ishtirok etgan.

Kalit so'zlar: o'zbek matbuoti, sovet mafkurasi, jadidchilik, savodxonlik, til va uslub, ijtimoiy hayot, tarixiy manba.

Kirish. XX asr boshlarida O'rta Osiyo xalqlari, xususan, o'zbek xalqining siyosiy, ijtimoiy va madaniy hayotida tub burilishlar yuz berdi. Bu davrda boshmachilik harakati, milliy mustaqillik uchun kurash, sovet hokimiyatining o'rnatilishi kabi murakkab jarayonlar sodir bo'ldi. Shu tarixiy jarayonda matbuot, xususan o'zbek tilidagi ommaviy axborot vositalarining roli nihoyatda muhim edi. “Inqilob quyoshi” gazetasi aynan ana shunday murakkab tarixiy sharoitda vujudga kelgan va o'zbek xalqini yangicha dunyogarash, ma'rifat, siyosiy faollikka yo'naltirishda katta o'rin egallagan matbuot organi hisoblanadi. Ushbu tezisda “Inqilob quyoshi” gazetasi o'zbek tilidagi ommaviy axborot vositasi sifatida qanday shakllanganligi, uning faoliyati, til va uslubiyati, ijtimoiy-siyosiy mavqecini chuqur o'rganish ko'zda tutiladi. Tadqiqotning maqsadi “Inqilob quyoshi” gazetasining o'zbek matbuotidagi o'rni, tarixiy ahamiyati va ma'naviy-ma'rifiy faoliyatini ilmiy asosda yoritish hisoblanadi. Tadqiqotning vazifalari esa gazetaning tashkil topish tarixini o'rganish, uning asosiy mavzulari va siyosiy yo'nalishini tahlil qilish, tildan foydalanish uslubini aniqlash hamda o'zbek matbuot tarixidagi o'rni va ta'sirini baholash hisoblanadi.

Tadqiqotning predmeti 1920–1930-yillar oralig'ida nashr etilgan “Inqilob quyoshi” gazetasini o'rganishdan iborat. Tadqiqotning obyekti o'zbek tilida chiqqan ijtimoiy-siyosiy matbuot organlari, xususan “Inqilob quyoshi” hisoblanadi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. “Inqilob quyoshi” gazetasi va umuman XX asr boshlaridagi o'zbek matbuoti tarixini o'rganishda bir qator ilmiy tadqiqotlar, arxiv

manbalari hamda davriy matbuot materiallari asosiy manba sifatida xizmat qiladi. Shu o'rinda avvalgi izlanishlarni e'tiborga olish zarur. O'zbekiston matbuoti taraqqiyoti, gazeta va jurnallarning ijtimoiy-ma'naviy hayotdagi o'rini yoritgan bir qator asarlar mavjud. Masalan, H. Tursunqulov, A. Qodirov, S. Otamurodov singari tadqiqotchilarning asarlarida XX asr boshidagi matbuotning shakllanish jarayonlari, o'zbek matbuotining ma'rifiy-mafkuraviy vazifalari yoritib berilgan. Bu ishlarda “Inqilob quyoshi” bevosita chuqur tahlil qilinmagan bo'lsa-da, o'zbek tilidagi dastlabki gazetalarning umumiy xarakteristikasi beriladi.

Xorazm Xalq Sovet Respublikasining siyosiy-iqtisodiy hayoti va ma'naviy madaniyati haqidagi ilmiy ishlar ham “Inqilob quyoshi” faoliyatini tushunishda muhim manba hisoblanadi. A. Asqarov, R. Suleymanov, Sh. Rajabovlarning izlanishlarida XX asr 20-yillaridagi Xorazm voqealari, jumladan, bosmaxona va nashriyot ishlarining rivoji, siyosiy matbuotning xalq ongiga ta'siri haqida qimmatli ma'lumotlar berilgan.

“Inqilob quyoshi”ning saqlanib qolgan sonlari, Xorazm hududidagi arxiv materiallari, shuningdek, o'sha davrda markaziy nashrlarda (masalan, “Turkiston viloyatining gazetasi”, “Ishtirokiyun”) chop etilgan maqolalar gazeta faoliyatini to'liqroq tahlil qilish imkonini beradi. Bu hujjatlar yordamida gazetaning mazmuni, undagi siyosiy targ'ibot yo'nalishlari va o'zbek jamiyatidagi ta'siri ilmiy jihatdan o'rganiladi.

Shuningdek, Prezident Sh. Mirziyoyevning matbuot erkinligi va tarixiy merosni chuqur o'rganish haqidagi asarlari ham ushbu tadqiqotning nazariy asosini tashkil etadi. Chunki zamonaviy yondashuvda matbuot tarixini qayta ko'rib chiqish, uning jamiyat taraqqiyotidagi o'rni belgilash davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Demak, mavjud adabiyotlarning tahlili shuni ko'rsatadiki, "Inqilob quyoshi" gazetasi alohida monografik tarzda chuqur tadqiq etilmagan, biroq uning tarixiy o'rni haqida ayrim ma'lumotlar umumiy asarlarda uchraydi. Bu esa bizning tadqiqotimiz dolzarbligini yanada oshiradi.

XIX asrning ikkinchi yarmidan boshlab Turkistonda jadicilik harakati avj oldi. Jadidlar madaniy-ma'rifiy sohada islohotlar olib borishga harakat qilgan bo'salar-da, ularning faoliyati, asosan, matbuot orqali namoyon bo'ldi. 1870-yillarda Toshkentda rus tilida chiqqan "Turkestanskije vedomosti" gazetasi bosma so'z tarixi uchun ilk qadam bo'ldi. Ammo musulmon xalqlari, ayniqsa o'zbeklar uchun o'z ona tilida chiqadigan gazetalarga ehtiyoj ortib bordi. 1906-yilda jadid ziyolilari tashabbusi bilan Buxoroda "Taraqqiy" gazetasi, keyinchalik "Sadoi Turkiston", "Hurriyat" kabi gazetalarning tashkil etilishi bilan o'zbek matbuoti tarixida yangi bosqich boshlandi. Bu bosma organlar xalqni uyg'otishga, milliy o'zlikni anglatishga xizmat qildi. Jadidlar matbuotni islohot quroli sifatida ko'rganlar. Matbuot orqali xalqni o'qishga, tafakkur qilishga, siyosiy va ijtimoiy jarayonlarda faol bo'lishga undadilar. Gazeta va jurnallar orqali yangicha qarashlar, ma'naviy uyg'onish g'oyalari targ'ib qilindi. "Shuhrat", "Taraqqiy", "Oyna", "Sadoi Turkiston" kabi nashrlar jadid harakatining ko'zguysi bo'lib xizmat qildi. Matbuot orqali bolalar uchun maktablar ochish, ayollar huquqlari, iqtisodiy islohotlar, adolatli jamiyat qurish kabi ilg'or g'oyalar ilgari surildi. Bu bosqichda matbuot ko'proq ma'rifiy va tanqidiy ruhda bo'ldi.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqot metodlariga tarixiy-tahliliy, solishtirma, manbalarni tadqiq qilish, matnshunoslik va lingvistik usullar kiradi. Manbashunoslik yondashuvi – tadqiqotda "Inqilob quyoshi" gazetasining mavjud sonlari, arxiv hujjatlari, ilmiy adabiyotlar va zamonaviy tadqiqot ishlari asosiy manba sifatida qo'llanildi. Qiyosiy metod – "Inqilob quyoshi" gazetasi boshqa o'sha davrdagi matbuot organlari bilan taqqoslandi, o'ziga xos jihatlari va umumiy xususiyatlari aniqlab berildi. Metodlarning uyg'unligi ilmiy izlanishni yanada samarali olib borishga yordam berdi va "Inqilob quyoshi" gazetasining o'zbek tilidagi matbuot organi sifatidagi o'rni ilmiy jihatdan asoslangan holda yoritildi.

XX asr boshlarida nashr etilgan o'zbek tilidagi gazeta-jurnallarning umumiy xususiyatlari quyidagilardan iborat edi:

Yangi o'zbek tili (uslubiy jihatdan aralash, ammo tushunarli);

Jadidlar va islohotparvar ziyolilar tahririyati;

Ma'rifiy, siyosiy, ijtimoiy va madaniy mavzularga urg'u berish;

Turkiy xalqlarni uyg'otish va birlashtirish g'oyasi.

Bu bosqich o'zbek milliy matbuotining shakllanishida muhim rol o'ynadi. Aynan shu davrda boshlangan jarayonlar keyinchalik "Inqilob quyoshi" gazetasi kabi nashrlar orqali rivoj topdi. Oktabr inqilobidan keyin Turkiston hududida sovet hokimiyatining o'rnatilishi bilan bir qatorda yangi turdagi ijtimoiy-siyosiy matbuot organlari shakllana boshladi. 1920-yillardan boshlab sobiq Xorazm Xalq Sovet Respublikasi, keyinchalik O'zbekiston SSRda kommunistik mafkurani targ'ib qiluvchi gazeta-jurnallar chop etildi. Shu davrda "Inqilob quyoshi" gazetasi o'z faoliyatini boshladi.

"Inqilob quyoshi" gazetasining asosiy maqsadi — sovet mafkurasini targ'ib qilish, yangi jamiyatni qurishda xalqni ongli ravishda jalb etish, ma'rifatparvarlik ruhini ommaga yetkazish edi. Bu nashr birinchi navbatda, o'zbek tilida chop etilishi bilan xalqqa yaqin bo'ldi. Uning nashr etilishi 1920-yillar oxiri va 1930-yillar boshlariga to'g'ri keladi. Gazetaning asosiy o'quvchilari — ishchilar, dehqonlar, o'qituvchilar va ziyolilar bo'lib, ular uchun bu nashr yangiliklar, siyosiy sharhlar, xalq xo'jaligi yutuqlari, madaniy hayot yangiliklari haqida ma'lumot manbai edi.

Gazetaning asosiy yo'nalishi — sovet mafkurasini, kommunistik g'oyalarni targ'ib qilish, sovet tizimini quvvatlash va jamiyatning siyosiy ongini shakllantirish edi.

XX asr boshlarida Turkiston xalqlari orasida savodxonlik darajasi past bo'lishiga qaramay, o'zbek tili orqali chop etilgan nashrlar tezda xalq orasida mashhur bo'la boshladi. Bu jarayonda "Inqilob quyoshi" gazetasi alohida o'rin tutdi. U o'zbek tilining nafaqat ommaviy axborot vositasi, balki siyosiy, ijtimoiy va madaniy muhokama vositasiga aylanishida muhim rol o'ynadi. Avvallari asosan diniy, she'riy yoki tarixiy nasr asarlari orqali yozma til rivojlangan bo'lsa, XX asrda gazetachilik tiliga ehtiyoj ortdi. "Inqilob quyoshi" gazetasi ana shu ehtiyojga javoban, o'zbek tilining ommaviylikka moslashuvini ta'minladi. Gazetada sodda, xalqchil, ayni vaqtda siyosiy ohangga ega tildan foydalanildi. Shuningdek, xalq maqollari, iboralar, oddiy dehqon va ishchilarning tili matnlarda aks etar edi. Bu esa uni xalq orasida qulay va tushunarli qiladi.



"Inqilob quyoshi" maqolasi. 5-fevral 1939-yil. Xorazm viloyat davlat arxivi

“O‘zarxiv” agentligi Axborot xizmati

“Inqilob quyoshi” gazetasi o‘z vaqtida zamonaviy ommaviy axborot vositalariga xos bo‘lgan til uslublarini shakllantirishda muhim tajriba maktabi bo‘ldi. Gazetada quyidagi uslubiy xususiyatlar kuzatiladi:

Soddalashtirilgan jumlarlar – uzun va murakkab sintaktik tuzilmalar o‘rniga oddiy jumladan foydalanish;

Terminologiya – sovet mafkurasiga oid so‘zlar (inqilob, proletariat, kolxoz, sovetlar, partiya, sinfiy kurashi) ko‘p ishlatilgan;

Targ‘ibot ruhi – maqolalarda ijobiy baholash, yangiliklarni ulug‘lash, sovet hokimiyatini madh etish kuchli bo‘lgan;

Ko‘p uchraydigan andozaviy iboralar – “kommunistik ong bilan”, “sinfiy yondashuvda”, “mehnatkash xalqimiz”, “sho‘rolar yurti farovonligi” kabi iboralar muntazam ishlatilgan;

Dialogik uslub – ba‘zi maqolalarda xalq tiliga yaqinlashish uchun savol-javob shaklidagi sarlavhalar yoki gaplar qo‘llanilgan.

Bundan tashqari, gazetada yozilayotgan har bir maqola qanchalik siyosiy bo‘lmasin,

tilda xalq ruhiyatiga yaqinlik sezilib turadi. Bu esa til orqali mafkura singdirishning eng samarali yo‘li edi.

1920–1930-yillar o‘zbek xalqi uchun savodxonlikni oshirish, yangi yozuvni (lotin alifbosi) o‘zlashtirish jarayoni bilan esda qolgan. Ayniqsa, sobiq jadidlar, yangicha o‘qituvchilar, maktab xodimlari savodsizlikka qarshi kurashda asosiy kuch bo‘lishdi. “Inqilob quyoshi” gazetasi esa ushbu kurashning axborot va ruhiy quroli edi. Gazeta o‘quvchilarga lotin yozuvini o‘rgatish – gazeta alifbo, fonetika, imlo haqidagi maqolalarni e‘lon qilar edi, unda savodsizlikka qarshi kurash haqida maqolalar – joylardagi “Likbez” (savodsizlikni tugatish) harakatlari yoritilar edi, o‘qishga da‘vat – dehqonlar, ishchilar, xotin-qizlar, bolalarni maktabga jalb qilishga da‘vat etuvchi maqolalar chop etilgan hamda o‘qituvchilarni ruhlantirish – dars jarayoni, yangi o‘quv uslublari, namunali o‘qituvchilar haqida maqolalar keltirilgan. Shu tariqa, “Inqilob quyoshi” gazetasi xalq orasida savodli o‘quvchilar qatlamini shakllantirishga, o‘zbek tilida mutolaa qilish madaniyatini rivojlantirishga sezilarli ta‘sir ko‘rsatdi.

“Inqilob quyoshi” gazetasi nafaqat siyosiy targ‘ibot vositasi, balki o‘z zamonasining ijtimoiy hayotini muntazam yoritib boruvchi muhim axborot manbasi ham bo‘lgan. Gazeta sahifalarida dehqonchilik, paxtachilik, sanoat, transport, sog‘liqni saqlash, ta‘lim-tarbiya kabi hayotiy masalalarga oid maqolalar keng o‘rin olgan. Ushbu gazeta joylardagi xo‘jalik ishlari, hosildorlik, paxtachilik rejalarning bajarilishi haqida har haftalik hisobotlar e‘lon qilgan, sog‘liqni saqlash tizimi (sanitariya, bolalar salomatligi, yuqumli kasalliklar bilan kurash) haqida maqolalar chop etgan va mehnatkashlarning ijtimoiy ahvoli – ish haqi, turmush sharoiti, yashash joylari haqida tanqidiy maqolalarni ham bosgan. Bu nashr o‘zining axborot yetkazish, muammolarni ko‘tarish va ularni hal etish mexanizmini yaratishda o‘zbek matbuoti tarixida katta ahamiyat kasb etadi.

“Inqilob quyoshi” gazetasi o‘z faoliyati davomida xalqning siyosiy va madaniy ongini oshirishni o‘zining asosiy vazifalaridan biri deb bildi. Shu bois gazeta sahifalarida xalq ongini uyg‘otuvchi, mafkuraviy va tarbiyaviy maqolalarga keng

o‘rin berilgan. Ular orasida quyidagi mavzular yetakchi o‘rin egallaydi:

Sinfiy kurashga chaqiriqlar – burjua va feodal qoldiqlarga qarshi fikrlar, “sinfiy dushmanlar”ni fosh etuvchi maqolalar;

Xotin-qizlar masalasi – ayollarni ijtimoiy hayotga jalb qilish, ularning mehnat huquqlari, ta‘lim olishi targ‘ib qilingan;

Bolalar va yoshlar tarbiyasi – pioner tashkilotlari, o‘quvchilarning bilim darajasi, tarbiya muammolari keng yoritilgan;

Maktablar va madaniy markazlar faoliyati – xalq uylarining ochilishi, kutubxonalar tashkil etilishi haqida maqolalar berilgan.

Mazkur gazeta nafaqat siyosiy-harbiy harakatlar aks ettirilgan nashr bo‘lib qolmay, balki keng xalq ommasini yangi jamiyat talablariga moslashishga chaqiruvchi madaniy-ma‘rifiy tribuna sifatida xizmat qilgan.

Tahlil va natijalar. Bugungi kunda “Inqilob quyoshi” gazetasi, avvalo, tarixiy manba sifatida alohida ahamiyatga ega. U XX asr boshlaridagi ijtimoiy-siyosiy muhit, o‘zbek tilining rivojlanish bosqichi, sovet mafkurasiga ta‘sir ostidagi matbuotning uslubiy qiyofasi, xalq hayotining real ko‘rinishlarini aks ettiradi. Tarixchilar, tilshunoslar va jurnalistika mutaxassislari uchun gazeta foydalidir. U tarixiy voqealarni o‘rganishda – 1920–30-yillardagi iqtisodiy va siyosiy holatni tahlil qilishda asosiy manba, tilshunoslikda – o‘zbek adabiy tilining publitsistik uslubda shakllanishi, leksik va grammatik xususiyatlari hamda mafkura tadqiqotlarida – sovet mafkurasiga vositalari, propaganda uslublari, siyosiy muhokama namunalarini o‘zida namoyon etadi. Shuningdek, bugungi yosh avlod uchun bu nashr tarixiy saboq, o‘tmishdagi matbuot tajribasi, jurnalistik jasorat namunasi sifatida qadrlanishi kerak. Undagi til, uslub va g‘oyaviy mazmun o‘zbek ommaviy axborot vositalari taraqqiyotining ilk bosqichlarini ochib beradi.

“Inqilob quyoshi” gazetasi XX asr boshlaridagi o‘zbek tilidagi matbuotning shakllanishi va rivojlanishida alohida o‘rin tutgan nashr bo‘lib, uning faoliyati zamonaviy o‘zbek ommaviy axborot vositalarining ildizlarini o‘rganishda nihoyatda muhim manba hisoblanadi. Gazetaning faoliyati nafaqat siyosiy-mafkuraviy yo‘nalishda, balki ma‘naviy-ma‘rifiy, madaniy hamda til rivojida ham katta ahamiyat kasb etadi.

Ushbu maqolada “Inqilob quyoshi” gazetasi quyidagi jihatlar bilan o‘rganildi va baholandi:

Gazetaning tashkil topish tarixi sovet davrining ijtimoiy-siyosiy muhitida, ayniqsa O‘zbekiston SSRda bosqichma-bosqich ommaviy axborot vositalarining shakllanish jarayonida yuzaga kelgani aniqlandi. U o‘zbek tilida chop etilgan eng muhim nashrlardan biri bo‘lib, xalq ongini yangilash, sovet mafkurasini singdirish vositasi bo‘lgan.

Tahririyat jamoasi asosan o‘z zamonasining ziyolilaridan, sobiq jadidlar, yangi sovet jurnalistlaridan iborat bo‘lib, ular xalq bilan bevosita muloqotda bo‘lishga intilgan, tilning soddalashtirilishiga, uslubning xalqchilligiga e‘tibor qaratgan.

Til va uslub xususiyatlari bo‘yicha gazeta o‘zbek adabiy tilining publitsistik janrda shakllanishiga kuchli ta‘sir ko‘rsatgan. Maqolalar soddaga, lo‘nda, mafkuraviy jihatdan kuchli bo‘lib, xalq ongiga ta‘sir qiluvchi iboralar bilan boyitilgan.

Ma‘naviy-ma‘rifiy targ‘ibot yo‘nalishida gazeta o‘qituvchilar, o‘quvchilar, dehqonlar, ishchilar, ayollar, yoshlar uchun alohida rubrikalar orqali savodxonlikni oshirish, siyosiy ongni shakllantirish, ijtimoiy hayotni yaxshilash masalalarini ilgari surgan.

Tarixiy manba sifatida “Inqilob quyoshi” gazetasi XX asrning dastlabki o‘n yilligida o‘zbek jamiyatining ijtimoiy, siyosiy, til va madaniy rivojlanishini aks ettirgan hujjatli manba bo‘lib, u zamonaviy tarixchilar, jurnalistlar, tilshunoslar tomonidan chuqur o‘rganilishi lozim bo‘lgan noyob vositadir.

Xulosa va takliflar. “Inqilob quyoshi” gazetasi XX asr boshida Xorazmda jadidchilik va sovet g‘oyalari sintezini aks ettirgan muhim matbuot organi sifatida shakllandi. Gazeta

milliy matbuot tarixida o'zbek tilining rivoji va ommalashuviga bevosita hissa qo'shdi. Nashr xalqni savodxonlikka, yangicha tafakkurga, zamonaviy dunyoqarashga undadi. O'sha davr siyosiy tuzumi sharoitida gazeta hukumat g'oyalari tarqatish bilan birga, milliy qadriyatlarni ham saqlab qolishga xizmat qildi. "Inqilob

quyoshi" gazetasi sahifalarini to'liq o'rganib chiqish va ularni bugungi avlod uchun ilmiy-tanqidiy nashr ko'rinishida qayta chop etish maqsadga muvofiq. Mazkur gazeta faoliyati Xorazm va umuman O'zbekiston matbuot tarixida alohida o'ringa ega bo'lgani uchun uni o'rganish bo'yicha alohida ilmiy monografiyalar yaratish zarur.

ADABIYOTLAR

1. Egamov A. O'zbek publitsistikasi tarixi. – Toshkent: O'zbekiston, 2001.
2. Karimov I. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma'naviyat, 2008.
3. Mamajonov A. Jadid matbuoti va ma'rifatparvarlik. – Toshkent: Fan, 1997-p.28
4. Nurmonov A. Jadidchilik tarixidan. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2003- p.25
5. Olimova S. Sovet mafkurasi va O'zbekiston matbuoti. // Ijtimoiy fanlar jurnali. – 1998. – №3.
6. Rahimov M. Sovet davrida O'zbekistonda matbuot siyosati. – Toshkent: Universitet, 2014-p.80
7. Sagdullayev A. Milliy o'zlik va matbuot. – Toshkent: Ma'naviyat, 2005.
8. Sultonova D. Matbuot tili va uning o'ziga xos xususiyatlari. – Toshkent: Universitet, 2010.
9. To'xtaboyev A. O'zbek matbuoti tarixi. – Toshkent: O'qituvchi, 1993.
10. Ubaydullayev N. Siyosiy publitsistikaning janr xususiyatlari. – Toshkent: Fan, 2016-p.50
11. Xudoyberganov B. Ma'rifatparvarlik va jadidchilik g'oyalari. – Urganch: Khorezm, 2007.
12. O'zbekiston Respublikasi Markaziy davlat arxivi fondlari (gazeta nusxalari, 1920–1930 yillar).
13. O'zbekiston Milliy kutubxonasi fondidan olingan "Inqilob quyoshi" gazetasi sonlari (mikrofilm va nusxa).
14. O'zR FA Tarix instituti ilmiy ishlari. – Toshkent: Fan, 1995–2020 yillar.
15. G'aniyev A. XX asr boshidagi o'zbek matbuoti. – Toshkent: Fan, 1980-p.120